



PSIXOLINGVISTIKA FANINING NAZARIY ASOSLARI VA NUTQ JARAYONLARINING KOGNITIV MEXANIZMLARI

Allayarova Malika
SamDCHTI 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixolingvistika fanining shakllanish bosqichlari, kognitiv jarayonlarning lingvistik birliklar bilan integratsiyasi, nutq ishlab chiqarish va qabul qilishning psixik mexanizmlari, bilingval shaxsning mental leksikoni, til va tafakkur o‘rtasidagi dialektik o‘zaro munosabatlar hamda xorijiy tilni egallash jarayonining psixolingvistik omillari keng ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: psixik mexanizmlar, mental leksikon, psixolingvistik omillar, kodlash, dekodlash, kognitiv psixologiya, sotsiolingvistika.

KIRISH.

Psixolingvistika – tilshunoslik va psixologiya tutashgan chegaradosh fan bo‘lib, inson ongida nutq signallarining qanday qayta ishlanishi, kodlanishi, dekodlanishi, nutq hosil bo‘lishi va qabul qilinishi kabi murakkab kognitiv jarayonlarni o‘rganadi. Tilning ijtimoiy tabiatini psixologik mexanizmlar bilan uyg‘un holatda tahlil qilishi psixolingvistika fanining boshqa lingvistik yo‘nalishlardan farq qiladigan jihatidir. Mazkur fan tahlili faqat lingvistik birliklar bilan cheklanmay, balki inson miyasi, neyron aloqalar, xotira, e‘tibor, emotsional holat, tafakkur strukturalari kabi psixik faktorlarni ham o‘z ichiga oladi.

Psixolingvistika quyidagi jarayonlarni o‘rganadi:

Nutqni ishlab chiqarish (speech production) - fikrning kontseptuallashtirish, semantik shakllanishi, grammatik strukturaning tanlanishi, artikulyatsion jarayonlar.

Nutq idroki (speech perception) - akustik signallarni sensor qabul qilishdan boshlab, fonologik, leksik, sintaktik, semantik dekodlashgacha bo‘lgan bosqichlar.

Tilni egallash (language acquisition) -birinchi va ikkinchi til o‘zlashtirish jarayonlarining psixologik yaratilishi.

Mental leksikon - inson ongidagi lug‘atning strukturasini tashkil etuvchi psixik model.

Bilingvizm va multi-lingvizm -ikki yoki undan ortiq tillarni idrok qilishdagi psixik jarayonlar.

Psixolingvistika quyidagi fanlar bilan uzviy bog‘liq:

- 1.Kognitiv psixologiya -tilni qayta ishlashning ong darajasidagi mexanizmlari;
- 2.Neyropsixologiya -miya markazlarining nutq jarayoniga ta’siri;
- 3.Sotsiopsixologiya -nutqni tanlashga jamiyat va ijtimoiy kontekstning ta’siri;
- 4.Lingvistika - til tizimining strukturaviy xususiyatlari.

Fanlararo xususiyat psixolingvistikani murakkab, ko‘p qatlamli ilmiy izlanishlar maydoniga aylantiradi [1; 45].

Ferdinand de Sossyur tomonidan tilning “belgi tizimi” sifatida talqin qilinishi til va ong o‘rtasidagi aloqa haqidagi psixolingvistik qiziqishning ilk poydevorini yaratdi. Ushbu davrda til struktural birlik sifatida qaralgan bo‘lsada, psixik mexanizmlar orqa fonda qolgan. Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan “universal grammatika” nazariyasi psixolingvistika rivojiga kuchli turtki bo‘ldi.

Chomskyga ko‘ra [2;88]:

til insonning tug‘ma qobiliyatidir, til qobiliyati miyaga genetik tarzda kodlangan, nutq hodisasi ongda mavjud bo‘lgan abstrakt qoidalarning voqelanishidir.



Chomskyning generativ modeli psixolingvistik tadqiqotlarda grammatik strukturalarning ongda qanday qayta ishlanishini o'rganishga olib keldi.

Sobiq ittifoq psixologlari Vygotskiy, Luriya, Leontyev, maktabi nutq faoliyatining ijtimoiy, kognitiv va psixologik jihatlarini kompleks ravishda o'rgandi. Vygotskiyning “ichki nutq” konsepsiyasi tilning tafakkur bilan birlashish jarayonini tushuntiradi [4; 34]. Luriya tadqiqotlari Broka va Vernike markazlarining psixofiziologik funktsiyalarini ochdi. Leontyevning faoliyat nazariyasi nutqning motivatsion-energetik mexanizmini sharhladi [5; 78].

Leveltga ko'ra nutq yaratilishi quyidagi bosqichlardan iborat [3; 87]:

kontseptuallashtirish -ongda fikrning shakllanishi, formulyatsiyalash, leksik tanlash, grammatik struktura yaratish, fonologik kodlash.

Artikulyatsiya - tovush chiqarishning fiziologik jarayoni. Bu model tilning ongda ketma-ket qayta ishlanishini ochib beradi.

Nutq idroki bosqichlari: akustik signallarni qabul qilish, fonologik tahlil, leksik aktivatsiya, semantik interpretatsiya, kontekstual tushunish.

Vygotskiy fikricha, tafakkur va til o'zaro chambarchas bog'liq: tashqi nutq → ichki nutq, ichki nutq → kognitiv tuzilmalar. Ichki nutqning qisqa, elliptik, telegrafik tabiatga ega bo'lishi uning kognitiv faoliyatga moslashganligini ko'rsatadi.

Kod-switching quyidagi sabablar bilan yuzaga keladi: pragmatik ehtiyoj, ijtimoiy muhit talabi, semantik noaniqlikni bartaraf etish, tezkor kommunikativ strategiya.

Krashen tomonidan ilgari surilgan Affective Filter Hypothesisga ko'ra: qo'rquv, uyatchanlik, stress til o'rganishda filtr rolini o'ynaydi va inputning ongga kirishini cheklaydi [7; 46].

Shuningdek: motivatsiya, ishchi xotira sig'imi, metakognitiv strategiyalar xorijiy tilni o'zlashtirishning asosiy psixik omillaridir.

Psixolingvistika insonning til faoliyatiga oid murakkab mexanizmlarni chuqur tahlil qiluvchi fan sifatida nutq ishlab chiqarish, idrok qilish, til va tafakkur munosabati, bilingvizm, nutqning kognitiv modeli, til o'rganishning psixologik omillarini ilmiy asosda yoritadi. Ushbu fan pedagogika, tarjimashunoslik, psixologiya, kognitiv lingvistika va neyrobilim sohalarida qo'llaniladigan nazariy va amaliy metodlarni boyitadi [8; 76]. Psixolingvistik mexanizmlarni chuqur o'rganish tilni o'qitish metodikasini takomillashtirish, til buzilishlarini davolash hamda nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotsky L. S. *Thought and Language*. MIT Press, 1986.
2. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. Cambridge, MA: MIT Press, 1965.
3. Levelt W.J.M. *Speaking: From Intention to Articulation*. MIT Press, 1989.
4. Leontyev A. A. *Psixolingvistika asoslari*. Moskva, 2003.
5. Luriya A.R. *Language and Cognition*. Cambridge University Press, 1976.
6. Sulaymanova N.J. Matnning konseptual tahlili “Xorijiy til ta'limi lingvodidaktikasi va innovatsion asoslari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2022 yil 15-16 aprel
7. Krashen S. *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. 1982.
8. Baddeley A. *Working Memory, Thought, and Action*. Oxford University Press, 2007.
- 7?. Absmadova, M. I. (2024). Exploring the language of diplomacy: Understanding the significance and evolution of diplomatic terms. *Miasto Przyszłości*, 49, 1315-1318.
- ¹ Isroilovna, A. M. (2022). Methodological frameworks in written translation. In Online-Conferences" Platform (pp. 37-40).
- ¹ Absmadova, M. (2024). Structural Analysis of Diplomatic Terminology: Single-Component Vs. Multi-Component Terms. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*.
12. Isroilovna, A. M. (2024). The impact of diplomatic language on international relations: A comprehensive analysis. *International Journal of Formal Education*, 3(5), 504-507.